object of the study is the «Ancient and Eternal Bukhara» park located in the city of Bukhara, Uzbekistan, which is comprehensively examined in terms of its potential for efficient and sustainable use from tourism, ecological, and cultural-spiritual perspectives. The article reviews the theoretical and methodological foundations of park utilization, drawing on both national and international experiences, as well as the criteria for assessing sustainability and monitoring mechanisms. The research employs inventory, observation, interview, and survey methods to analyze visitor satisfaction levels, their awareness and attitudes toward sustainability, and their suggestions and complaints. Additionally, the ecological condition of the park, its impact on the socio-cultural environment, tourism infrastructure, service quality, and economic efficiency are objectively studied. Based on the opinions of the general public and various stakeholders (especially residents and visitors), the article proposes scientifically grounded practical recommendations aimed at ensuring sustainable development of the park while maintaining ecological balance. This article serves as a valuable resource for making evidence-based decisions in integrating national parks into the development of tourism.

**Keywords**: sustainability, natural resources, sustainable development, ecological sustainability, visitor satisfaction level.

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу возможностей использования национальных и рекреационных парков, основанных на природных ресурсах, в туристической сфере. В качестве объекта исследования выбран парк «Древний и вечный Бухара», расположенный в городе Бухара (Узбекистан), в котором всесторонне освещены перспективы эффективного и устойчивого использования данной территории в туристическом, экологическом и культурно-духовном аспектах. В статье рассмотрены теоретико-методологические основы использования парков на основе национального и международного опыта, а также критерии оценки устойчивого развития и механизмы мониторинга. В процессе исследования применялись методы инвентаризации, наблюдения, интервью и анкетирования, посредством которых проанализированы уровень удовлетворенности посетителей, их отношение к устойчивости, предложения и жалобы. Кроме того, объективно изучены экологическое состояние парка, влияние на социокультурную среду, туристическая инфраструктура, качество предоставляемых услуг и экономическая эффективность. На основе мнений широкой общественности и заинтересованных сторон (в частности, местного населения и посетителей) разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого развития парка с сохранением экологического баланса. Данная статья представляет собой важный источник для принятия научно обоснованных решений по вовлечению национальных парков в развитие туризма.

**Ключевые слова**: устойчивость, природные ресурсы, устойчивое развитие, экологическая устойчивость, уровень удовлетворенности посетителей.

**For citation:** Radjabov O.O. Prospects for the sustainable development of natural objects using the example of the «Ancient and eternal Bukhara» park in Bukhara. Towards a new economy, pedagogy and technology. 2025; 2(1): 79-88. https://doi.org/10.5281/zenodo.15595058

**Kirish.** Tabiiy resurslarga asoslangan turizm barqaror rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi, u iqtisodiy foyda keltirishi bilan birga ekotizmlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Jamiyatga asoslangan tabiiy resurslarni boshqarish usuli Botsvanadagi Okavango deltasi misolida tabiatni muhofaza qilish amaliyotlarini targ‘ib etish va yovvoyi hayvonlar sonini oshirishda muvaffaqiyatli natijalar bergan [7]. Tabiiy resurslarga asoslangan qarashlarga ko‘ra, plyajlarga yaqinlik va atrof-muhit sifati kabi omillar qirg‘oqbo‘yi mehmonxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [16]. Biroq, barqaror turizm resurslarga nisbatan raqobat, iqlim o‘zgarishi va demografik o‘zgarishlar kabi qiyinchiliklarga duch kelmoqda [17]. Ushbu muammolarni hal etish uchun inklyuziv boshqaruv, umumiy boshqaruv va moslashuv strategiyalarini o‘z ichiga olgan yangi yondashuvlar zarur. Ular ochiq havoda rekreatsiyasi va tabiiy resurslarga asoslangan turizm sohasida uzoq muddatli rejalashtirish va barqarorlikni ta’minlash uchun muhimdir [17].

Buxoro shahri dunyo hamjamiyatida o‘zining beqiyos madaniy meros obyektlari bilan mashhur bo‘lib qolmay, ekologik barqarorlikni ta‘minlash maqsadida hududda 2010-yilda 107 gektar huddudda yashil makonlarni ko‘paytirish maqsadida “Ko‘hna va Boqiy Buxoro” bog‘i barpo etildi. Prezidentimiz tashabbusi va g‘oyasi asosida barpo etilgan 107 gektardan iborat madaniy markaz, yirik inshootlar - 700 o‘rinli viloyat musiqali drama teatri, 2000 tomoshabinga mo‘ljallangan amfiteatr, ular o‘rtasida esa “Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumentidan iborat. Bu hudud turli xil o‘simlik dunyosi vakillari uchun dargoh bo‘libgina qolmay, o‘z ichida hududning madaniyati va an’analarini aks ettirgan Ko‘hna va boqiy Buxoro monumentini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu obida hudud markazida joylashgan bo‘lib, balandligi 18 metr va yuqori qismi, og‘irligi 32 tonna bo‘lgan, globusdan iborat. Unda 13 ta hududdagi madaniy meros obyekti tasvirlaridan tashqari hududda yashab ijod etgan 17 ta mashhur siymolarning tasviri tushirilgan. Hudud bugungi kunda mahalliy aholining eng ko‘p tashrif buyuradigan maskaniga aylangan va bundan tashqari turistlarni ham jalb etmoqda. Ushbu imkoniyatdan turistik maqsadda foydalanish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash hudud mutasaddilari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotda asosiy sifat va miqdoriy metodlardan biri sifatida kontent tahlili usuli qo‘llanilib, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy hujjatlar va ommaviy axborot vositalaridagi materiallar o‘rganildi. Bu usul orqali tadqiqot mavzusiga oid asosiy tendensiyalar va kommunikatsion vositalar tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida inventarizatsiya usuli orqali tahlil qilinayotgan obyektlar, resurslar va kommunikatsiya vositalari ro‘yxatga olinib, ularning holati va mavjudlik darajasi baholandi. Bu metod orqali amaldagi vositalarning samaradorligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

Bundan tashqari, Google formda so‘rovnoma usuli yordamida keng jamoatchilik va turli manfaatdor tomonlarning fikrlari o‘rganildi. So‘rovnomalar onlayn shaklda tarqatilib, respondentlarning axborotga bo‘lgan munosabati, xabardorlik darajasi hamda kommunikatsiya vositalarining samaradorligi yuzasidan statistik ma’lumotlar yig‘ildi. Ushbu metodlar birgalikda qo‘llanilgani tadqiqot natijalarining ishonchliligi va chuqurligini ta’minladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Milliy bog‘lar barqaror va mas’uliyatli turizmni targ‘ib qilishda ijtimoiy ta’lim va xabardorlikni oshirish faoliyatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi [15]. Biroq, tabiiy bog‘larda barqaror rivojlanish rejalari samaradorligi har doim ham bir xil bo‘lmaydi, buni Andalusiyaning yigirma yillik tajribasi misolida ko‘rish mumkin [3]. Angliya Milliy Park ma’muriyatlari tarixan sayyohlar ehtiyojlari bilan atrof-muhitni muhofaza qilishni muvozanatlashga intilgan bo‘lsa-da, ularning barqaror turizm rivoji va marketingga bo‘lgan yondashuvlari doim ham izchil va yetarlicha asoslangan bo‘lmagan [14]. Ekoturizm ko‘pincha tabiiy bog‘larda atrof-muhit barqarorligini va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda yechim sifatida ko‘riladi, biroq uning muvaffaqiyati kafolatlanmagan. Realistik rejalashtirish va bog‘larni rivojlantirish bo‘yicha shoshilinch qarorlarning oldini olish uchun turistlarning xatti-harakati, motivatsiyasi va manzillar jozibadorligini sinchkovlik bilan baholash zarur [8]. Ushbu natijalar tabiiy bog‘lar, barqaror turizm va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlab beradi.

Tabiiy bog‘larning barqarorligiga turizm, iqtisodiy rivojlanish va tashrif buyuruvchilarning qoniqishi kabi bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Himoya etilgan hududlardagi turizm yaqin atrofdagi hamjamiyatlar uchun iqtisodiy o‘sish va hayot sifatini yaxshilashga yordam berishi mumkin, biroq bu jarayon tabiatni muhofaza qilish sa’y-harakatlari bilan muvozanatli olib borilishi zarur [10]. Kolumbiyadagi Tayrona milliy bog‘i misolida o‘rganilganidek, barqaror turizm amaliyotlari muhim ahamiyatga ega; bu yerda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning atigi 9,1 foizi yuqori darajada barqarorlikni namoyish etgani aniqlangan [9]. Bog‘larning iqtisodiy barqarorligi ekologik xususiyatlar, infratuzilma va joylashuv kabi omillarning murakkab o‘zaro ta’siriga bog‘liq bo‘lib, qurilgan infratuzilma ko‘pincha faqat ekologik xususiyatlarga qaraganda tashrif buyuruvchilar soniga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi [2]. Tashrif buyuruvchilarning qoniqishi esa bog‘lar barqarorligining asosiy omillaridan biri bo‘lib, u umumiy qiymat, tavsiyalar va odamlar bilan o‘zaro munosabatlar kabi ko‘plab o‘zgaruvchilarga bog‘liq ekani Ispaniyadagi Aigüestortes milliy bog‘ida o‘tkazilgan tadqiqotda ko‘rsatib berilgan [5].

**Tahlil va natijalar.** Olib borilgan inventarizatsiya natijasida bog‘dagi obyektlar, ularning qulayligi, imkoniyatlar va xizmatlar tahlil qilindi. Bundan tashqari bog‘ning flora va faunasi, barqarorlik holati tahlili amalga oshirildi (1-rasm):

- bog‘da 20 dan ortiq o‘simliklar va darxat turlari (lola, qayrag‘och, eman, archa va boshq.) makon topgan bo‘lib, unda mahalliy qushlarni ham kuzatish mumkin;
- bog‘ yo‘laklari to‘liq beton qoplamalar bilan qoplangan bo‘lib jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun ham aravachada harakatlanish imkoniyati mavjud;



**1-rasm. Bog‘ning inventarizatsiya natijasida tasvirga olingan barqarorlik amaliyotlari**

- bog‘da chiqindilarni qayta ishlash uchun qog‘oz va plastikka ajratilgan qutilar mavjud, obodonlashtirish xodimlari doimiy tozalik ishlarini amalga oshirishadi;
- bog‘da qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan o‘rindiqlar mavjud;
- bog‘ning Drama teatri qismida quyosh panalleri joylashtirilgan bo‘lib u orqali bog‘ yo‘laklari elektr bilan ta’minlanadi;
- unda tomchilab sug‘orish tizimi joriy etilgan va yomg‘ir va yer osti suvlarini yig‘ish tizimi mavjud;
- bog‘da bolalar uchun maydoncha mavjud va yaroqli holda;
- mahalliy aholi uchun piknik zonalari mavjud;
- unda kichik qahvaxona mavjud, biroq ko‘pchilik tomonidan biohojatxonalar yo‘qligi tanqid qilingan.




**2-rasm. Bog‘ga tashrif buyuruvchilar intensivligi**

So‘rovnomada jami 139 tashrif buyuruvchi ishtirok etgan bo‘lib ularning tarkibi quyidagicha:

- 13-18 yosh - 22 kishi
- 18-25 yosh - 76 kishi
- 26-50 yosh - 31 kishi
- 55 va undan yuqori - 10 kishi

Jami 65 ta ayol va 74 ta erkak, shulardan 7 nafar xorijiy fuqaro

So‘rovnomada ishtirok etuvchilarning 1/3 qismi deyarli bog‘ga kam tashrif buyurishini aytib o‘tgan va har kuni tashrif buyurvchilar soni esa 17,3% ni tashkil etgan.




**3-rasm. Bog‘ga tashrif buyuruvchilarning maqsadlari**

Tashrif buyuvchilarning juda katta qismi (69,1%) dam olish maqsadida bu yerga kelganini e’tirof etgan bo‘lsa, tadbirlar uchun tashrif buyuruvchilar juda kamchilikni tashkil etar ekan (16%). Tashrif buyuruvchilarning, deyarli, yarmi bog‘ni do‘stlar bilan uchrashish vositasi deb hisoblashadi. Shuningdek, hudud sport va jismoniy mashqlar uchun, oila bilan vaqt o‘tkazish va tabiatdan zavqlanish uchun maskan vazifasini ham bajaradi.




**4-rasm. Bog'ning ekologik barqarorligini so'rovnoma orqali baholash**

Bog'ga tashrif buyuruvchilar uni, umuman olganda, toza deb hisoblashadi va 70% dan ortiq qismi tozalikni yuqori baholagan. Bog'da chiqindilarni qayta ishlash uchun joylashtirilgan qutilarni 90% ga yaqin tashrif buyuruvchilar mavjud ekanligiga e'tibor qaratgan, yashil maydonlar yetarli ekanligini 70% mehmonlar ta'kidlashgan. Bog'ni toza tutish bo'yicha chorlovlarga esa 70% dan ortiq mehmonlar e'tibor ham berishmagan yoki ko'rishmagan. Umuman olganda, bog'da ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni, deyarli, 89% tashrif buyuruvchilar qo'llab - quvvatlashini ta'kidlagan.




**5-rasm. Bog'ning ijtimoiy barqarorligini so'rovnoma orqali baholash**

Bog‘ni deyarli barcha xavfsiz deb hisoblaydi va bog‘da barcha yoshdagi guruhlarninig dam olishi uchun shart-sharoitlar majvudligini tashrif buyuruvchilarning 2/3 qismi ta’kidlab o‘tgan. 70% mehmonlar nogironlar uchun shart - sharoit yetarlicha darajada ekanligini aytib o‘tishgan.




Park atrofida kichik savdo nuqtalari (qahvaxona, sovg‘a do‘konlari) mavjudmi?

Siz bu parkda pullik xizmatlardan foydalangansizmi (velosiped ijarasi, kafe)?

Park infratuzilmasi (o‘rindiqlar, yo‘laklar, hojatxonalar) yaxshi saqlanganmi?

Parkdagi xizmatlar narxi adolatlimi (agar pullik bo‘lsa)?

Sizningcha, bu park mahalliy iqtisodga foyda keltiradimi?

**6-rasm. Bog‘ning ekologik barqarorligini so‘rovnoma orqali baholash**

Bog‘dagi savdo do‘konlari va qahvaxonalarni 68% tashrif buyuruvchilar payqashgan bo‘lsada, pullik xizmatlardan mehmonlarning yarmidan ko‘pi, umuman, foydalanmagan. Bog‘dagi o‘rindiqlar holatini 56,8% mehmonlar qoniqarli deb baholashgan bo‘lsa, bog‘dagi pullik xizmatlarni deyarli mehmonlarning yarmi adolatli deb hisoblashadi. Umuman olganda, bog‘ning ahamiyatini mahalliy iqtisodiyot uchun barcha mehmonlar bor hisoblashadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, bog‘ ekologik va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan yetarlicha rivojlantirilgan. Biroq bog‘da iqtisodiy rivojlanish tashrif buyuruvchilar va inventarizatsiya natijalariga ko‘ra, qoniqarsiz darajada deb baholangan. Xizmat ko‘rsatish darajasi yetarli emas va infrastruktura rivojlantirish talab etiladi. Shuningdek, barqarorlik amaliyotini targ‘ib etish vositalari (xabardorlikni oshirish uchun) yetarli darajada emas.

Jami ekologik barqarorlikni ta’minlash zarur deb taklif berganlar soni 38 ta (27%) tashkil etadi. Asosiy takliflar suv resurslari bilan bog‘ni boyitish, ko‘proq gullar va ko‘chatlar ekish masalasi, shuningdek, axlat uchun qutilar sonini oshirishga bag‘ishlangan.

Jami ijtimoiy barqarorlik sohasida takliflar soni 49 ta (35%) ni tashkil etadi, asosiy muammo sifatida kunning yorug‘ vaqtida soyada joylashgan o‘rindiqlar sonining kamligi va ularni soyabon bilan o‘rash zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek,

talabalar uchun tabiat qo‘ynida dars qilish imkoniyatini yaratish zarurligi aytib o‘tilgan. Piknik zonalarni ko‘paytirish va biohojatxonalar tashkil etish masalalari ham bor. Ba’zi tashrif buyuruvchilar shovqin (musiqa)dan shikoyat qilgan holatlar ham mavjud.

Jami 43 kishi (31%) iqtisodiy barqarorlik ta’minoti haqida fikr bildirgan va tashrif buyuruvchilar odatda ovqatlanish zonalari va do‘konlar kamligidan shikoyat qilishgan. Shunigdek, qulayliklardan bolalar uchun maydonlar va atraksionlar sonini ko‘paytish zarurligi ham ta’kidlab o‘tilgan.

Jami 9 nafar (7%) tashrif buyuruvchi hech qanday kamchilik yo‘qligi va taklifga hojat yo‘qligini ta’kidlab o‘tgan.

Ushbu loyiha kelajakda respublikamiz bog‘larning barqaror rivojlanishi ta’minlash va turizm sohasida foydalanish darajasini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Davronov I., Yuldashev K., Radjabov O., Nurov Z. (2021) Ўзбекистон республикасида мустақил туризм инфратузилмасини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).

2. De Vos A., Cumming G., Moore C., Maciejewski K. (2016) The relevance of spatial variation in ecotourism attributes for the economic sustainability of protected areas. Ecosphere 7 (2).

3. Escribano Salmoral B., Mulero Mendigorri A. (2022) Sustainable development plans and tourism in the natural parks of Andalusia: results and change of orientation.

4. Farmanov E., Radjabov O., Davronov I., Yuldashev K., Sharipov B., Ibragimov N. (2024) RETRACTED: The necessity of developing mobile applications for people with disabilities. In BIO Web of Conferences, Vol.138, P. 02001. EDP Sciences.

5. Florensa Guiu R.M., Colom Gorgues A., Maza Rubio M.T. (2020) Análisis ACP, CHAID y PLS-SEM de la satisfacción de visitantes de espacios naturales protegidos. Aplicación al Parque Nacional de Aigüestortes en Lleida

6. Ibragimov N., Davronov I., Yuldashev K., Radjabov O., Farmanov E., Sharipov B. (2024). Inclusiveness of accommodation tools in Uzbekistan and the essence of inclusive tourism. In BIO Web of Conferences, Vol.141, P. 04044). EDP Sciences.

7. Mbaiwa J.E. (2011) Changes on traditional livelihood activities and lifestyles caused by tourism development in the Okavango Delta, Botswana. Tourism management, 32(5), P. 1050-1060

8. Montaguti F., Mingotto E. (2015) Ecotourism in natural parks: an assured sustainable success? Tourist behavior, attractiveness and sustainable development issues in two Italian parks. Tourism Planning & Development, 12(1), P. 99-110

9. Oliveros Ocampo C.A., Beltrán Vargas J.E. (2018) Assessment of the sustainability of tourism service providers in the Tayrona national natural park, department of Magdalena, Colombia. Cuadernos de Geografía: Revista Colombiana de Geografía, 27(1), P. 100-117

10. Pérez-Calderón E., Prieto-Ballester J.M., Miguel-Barrado V., Milanés-Montero P. (2020) Perception of sustainability of Spanish national parks: Public use, tourism and rural development. Sustainability, 12(4), P. 1333

11. Radjabov O. (2024) Madaniy meros interpretatsiyasi barqaror rovijlanish asosiy strategik kommunikatsiyasi sifatida. Digital transformation and artificial intelligence, 2(6), P. 196-201

12. Radjabov O., Terruel Serrano M. (2024) Prospects of strategic communication for sustainable cultural tourism development: a case study of Bukhara Historical Centre, Uzbekistan. In International Congress for heritage digital technologies and tourism management. Editorial Universitat Politècnica de València.

13. Radjabov O., Gubíniová K., Vilčeková L., Remiaš K. (2025) Analysis of the most common mass communication tools of marketing communication respecting the criteria of sustainability within tourism industry. In: Štarchoň P., Fedushko S., Gubíniova K. (eds) Developments in information and knowledge management systems for business applications. Studies in systems, decision and control, vol 578. Springer, Cham. DOI: 10.1007/978-3-031-80935-4_14

14. Sharpley R., Pearce T. (2007) Tourism, marketing and sustainable development in the English national parks: the role of national park authorities. Journal of Sustainable Tourism, 15(5), P. 557-573

15. Szczęsna J., Wojtanowicz P. (2014) The role of national parks in promoting sustainable and responsible tourism. Regional Barometer. Analyses & Prognoses, 12(4), P. 19-25

16. Wang X., Kim J., Kim J., Koh Y. (2024) Application of natural-resource-based view to nature-based tourism destinations. Sustainability, 16(6), P. 2375

17. Winter P. L., Selin S., Cerveny L., Bricker K. (2019) Outdoor recreation, nature-based tourism, and sustainability. Sustainability, 12(1), P. 81

18. Раджабов О.О. (2021) Эффективные способы использования инструментов PR-Public Relation (связей с общественностью) в туризме. Наука, общество, инновации: актуальные вопросы и современные аспекты, P. 106-117

**Founder Information:**
Founder: University of science and technologies
Address: 71 Diydor street, Chilonzor district, Tashkent, Uzbekistan
Phone: +998 78 888 38 88
Email: info@usat.uz
Website: www.usat.uz

**ISSN 3060-5342**

**Publication date:** June 26, 2025

**About the journal:**
The journal was registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan on December 6, 2024 (Certificate №517474).
The scientific electronic journal «Towards a new economy, pedagogy, and technology» is dedicated to covering new research and innovations in the fields of economics, pedagogy and technologies. The journal is published quarterly and is open to the scientific community.

**Information for authors:**
To learn about submission guidelines and publication policies, please visit journal website: www.journal.usat.uz
Copying of materials from the scientific electronic journal «Towards a new economy, pedagogy and technology» is carried out only with the written permission of the editorial board.
The views of the editorial board may not coincide with the opinion of the authors.
The author is personally responsible for the accuracy of the figures and facts in scientific articles.

**Subscription and contact:**
To subscribe to journal or get additional information, please contact editorial:
Phone: +998 88 411 20 45
E-mail: journal@usat.uz
Telegram: @journal_usat_admin
Telegram channel: t.me/journal_usat

**© University of science and technologies, 2025**

Signed for printing 04.06.2025. Format 60x84 1/8
Times font. Office paper. Electrographic printing.
Conventional printed sheet 24,75. Print run 10. Order № 05-06/25

**Printed at «IMPRESS MEDIA» LLC Printing House**
**Tashkent, Yakkasaray district, Kushbegi street, 6**

**Информация об учредителе:**
Учредитель: Университет науки и технологий
Адрес: Республика Узбекистан, г. Ташкент, Чиланзарский р-н, ул. Дийдор 71
Телефон: +998 78 888 38 88
Электронная почта: info@usat.uz
Веб-сайт: www.usat.uz

**ISSN 3060-5342**

**Дата публикации:** 26 июня 2025 года

**О журнале:**
Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан 6 декабря 2024 года (Свидетельство №517474).
Научный электронный журнал «К новой экономике, педагогике и технологиям» посвящен освещению новых исследований и инноваций в области экономики, педагогики и технологий. Журнал издается ежеквартально и открыт для научного сообщества.

**Информация для авторов:**
Для ознакомления с правилами подачи статей и публикации посетите сайт журнала: www.journal.usat.uz
Копирование материалов из научного электронного журнала «К новой экономике, педагогике и технологиям» осуществляется только с письменного разрешения редакции.
Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов.
За достоверность цифр и фактов в научных статьях персональную ответственность несет автор.

**Подписка и контакты:**
Для подписки на журнал или получения дополнительной информации свяжитесь с редакцией:
Телефон: +998 88 411 20 45
E-mail: journal@usat.uz
Telegram: @journal_usat_admin
Telegram канал: t.me/journal_usat

**© Университет науки и технологий, 2025**

Подписано в печать 04.06.2025. Формат 60x84 1/8
Гарнитура Times. Офисная бумага. Электрографическая печать.
Условный печатный лист 24,75. Тираж 10. Заказ № 05-06/25

**Отпечатано в типографии ООО «IMPRESS MEDIA»**
**Ташкент, Яккасарайский район, ул. Кушбеги, 6**

**Muassis haqida ma’lumot:**
Muassis: Fan va texnologiyalar universiteti
Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Diydor ko‘chasi, 71-uy
Telefon: +998 78 888 38 88
Elektron pochta: info@usat.uz
Veb-sayt: www.usat.uz

**ISSN 3060-5342**

**Nashr sanasi:** 2025-yil 26-iyun

**Nashr haqida:**
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-dekabr kuni ro‘yxatga olingan (Guvohnoma №517474).
“Yangi iqtisodiyot, pedagogika va texnologiyalar sari” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot, pedagogika va texnologiyalar sohalaridagi yangi tadqiqotlar va innovatsiyalarni yoritishga bag‘ishlangan. Jurnal har chorakda bir marta nashr etiladi va ilmiy hamjamiyat uchun ochiq.

**Mualliflar uchun ma’lumot:**
Maqolalarni topshirish va nashr etish qoidalari bilan tanishish uchun jurnal veb-saytiga murojaat qiling: www.journal.usat.uz
“Yangi iqtisodiyot, pedagogika va texnologiyalar sari” ilmiy elektron jurnalidan ko‘chirib olish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
Tahririyat fikri mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin.
Ilmiy maqolalardagi raqam va faktlarning haqqoniyligiga muallif shaxsan mas’ul.

**Obuna va aloqa:**
Jurnalga obuna bo‘lish yoki qo‘shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi aloqa ma’lumotlari orqali tahririyat bilan bog‘lanishingiz mumkin.
Telefon: +998 88 411 20 45
E-mail: journal@usat.uz
Telegram: @journal_usat_admin
Telegram kanal: t.me/journal_usat

**© Fan va texnologiyalar universiteti, 2025**

Bosishga ruxsat etildi 04.06.2025. Bichimi 60x84 1/8
Times garniturasi. Ofis qog‘ozi. Elektrografik bosma.
Shartli bosma tabog‘i 24,75. Tiraji 10. Buyurtma № 05-06/25

**“IMPRESS MEDIA” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.**
**Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko‘chasi, 6-uy**